

YOSHLARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Mamadalimov Azimjon Xasanboyevich

FarDU Harbiy Ta'lif Fakulteti, dotsent Maxsus tayyoragarlik sikli o'qituvchisi

Muxtaram Prezidentimiz Shovkat Miromonovich Mirziyoev takidlaganlaridek: Milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi muxim vazifalar:

Birinchidan, milliy xavsizlik kabi o'ta muhim sohani qonun talablari asosida boshqarish samarasini oshirish.

Ikkinchidan, Qurolli Kuchlar qurilishining tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish lozim.

Uchunchidan, qo'shirlarni tayyorlash borasidagi tadbirlarni rejalashtirishga oid yangicha yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

To'rtinchidan, barcha bo'g'indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Beshinchidan, qo'shirlarni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan qayta ta'minlash.

Oltinchidan, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy ximoya qilish bo'yicha chora tadbirlar samaradorligini oshirish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor.

Ettinchidan, yoshlарimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzuluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mustaqillik mevasi bo'lgan, yangi qurilayotgan xuquqiy, demokratik jamiyatning ma'naviy – ma'rifiy binosi mustahkam bo'lishi lozim. Bu esa, avvalo, yosh avlodni bilimli, teran fikrli, o'z o'tmishi durdonalaridan va ma'naviy qadriyatlardan xabardor, vatanparvar, xalqparvar, fidoiy qilib tarbiyalashni taqazo etadi. Komil inson shaxsni tarbiyalash ishi esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirishda ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, yoshlar qachonki o'z tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilgandagina, mustaqillikning tub mohiyatini yana ham chuqurroq anglaydi. Milliy istiqlol mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib yaratilishi bejiz emas, albatta.

Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Har bir fuqaro ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidir" – degan gaplari ayni muddaodir. Ma'naviy qadriyatlar va istiqlol istiqboli hamda mafkuraviy ong, yashash tarzi haqida, ya'ni avlodlar mushtarakligi fikr yuritar ekanmiz, uni uch toifaga bo'lish mumkin:

keksa avlod istiqlolni ardoqlab, shunday ozod va erkin kunlarga etib kelgani uchun shukronalar aytayotgan bo'lsa, o'rta avlod talabchan, ochig'ini aytish kerak, hayotda o'z

o'rnini topayotir, ayrim hollarda, iste'maolchilik kayfiyatida ham elib yugurmoqda, yosh avlod esa, hayotga faol kirib kelmoqda, ularning shakllanishida milliy qadriyatlarning alohida o'rni va ahamiyati borligini ta'kidlash muhim va ayni paytda, ularning hayotdagi ma'naviy – ma'rifiy o'zgarishlarni, ya'ni mafkuraviy talablarni idrok etishdagi burchi va ma'suliyatini anglash tuyg'usi tobora o'sayotganligiga guvohmiz. Milliy qadriyatlarmiz xususida bobokalonlarimizning ilmiy, ma'rifiy merosi borasida yoshlarni faxrlanishiga o'rgatishimiz lozim. Chunki, jaxonda XII- asrdan boshlab, xanuzgacha algebra fani asoschisi sifatida Al – Xorazmiy nomi ulug'lanadi. Hozirgi zamonda kosmik kemalar, havo transporti, xisoblash texnikasi, kompyuterlar, ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar algoritm qoidasi asosida ishlamoqda. Abu Nasr Forobiy inson aqliy va ijodiy faoliyatining takomillashuvida musiqiy oxanglarning fizikaviy xolatiga asos soldi. Geodeziya, minerologiya, farmakognoziya ilmlarini Abu Rayxon Beruniy kashf etdi.

Mirza Ulug'bek osmon jismlari Quyosh, Oy, yulduzlar harakatidagi o'ziga xos tomonlarni chuqur o'rganib, yangi ilmiy xulosalar chiqardi. Oy harakati nazariyasini yaratdi, xisoblash matematikasini yanada boyitdi. YAngi kalendarlar tuzdi, unga to'laqonli izohlar berdi. Ahmad al – Farg'oniy suv o'Ichovi birligi hamda globusni yaratgan bo'lsa, Zamaxshariy arab tili grammatikasini vujudga keltirdi.

B. Marg'iloni yuquq ilmini yangi qarashlar bilan boyitdi. Bunday yaratuvchanliklarni milliy qadriyatlarmiz sifatida ulug'lanar ekan, ularni o'rganish, o'zlashtirish yosh avlodning muxim burchi bo'lmog'i kerak. Bozor munosabatlari ilgarigi tasavvur va qarashlarning o'rniga yangicha talablarni qo'yayotganligini yoshlarimiz bir zumga ham unutmasligi kerak. Bu yosh avloddan milliy g'oya asosidagi tafakkur chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda. Uning negizi – milliy qadriyatlarmizdir.

Yangicha yashash ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish tuyg'usi esa, yosh avlod oldiga keksa avlodga qaraganda, ma'suliyatliroq vazifalarni qo'ymoqda. Xususan ong va tafakkur hamda milliy qadriyatlardagi o'zgarishlar, hayot talabidan orqada qolayotganligi ma'naviy saloxiyatdagi qusurlar bilan bog'liqidir. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga etkazish va singdirishda pedagoglar jamoasini, bu orasida ayniqsa tarix fani o'qituvchilarini xizmati katta bo'lishi kerak. Chunki, xalqning ma'naviy va moddiy merosi an'analar, urf-odatlar, marosimlar, iymon-e'tiqodi asrlar osha saqlanib qoldi va mukammallahib tarixga aynaldi. Milliy qadriyatlarni yoshlarimiz o'zlashtirishlari uchun tarix fani orqali quyidagi tafsiyalarni beramiz:

- Mustaqillikning ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy, siyosiy – xuquqiy negizini chuqur o'rganish;
- Mamlakatimizni o'ziga xos va o'ziga mos – "O'zbek modeli" taraqqiyoti yo'lini ilmiy – nazariy asoslash;
- Ijtimoiy adolat qonuni ustuvorligi, fuqarolik jamiyati qurish, jipslik, osoyishtalik, milliy hamkorlik va barqarorlikni ta'minlash;
- Mamlakat ahli, ayniqsa yosh avlod qalibga vatanparvarlik, el – yurtga sadoqat, insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini singdirish har xil millatchilik va yosh qaramlardan

mutlaqo xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan, e'tiqodi mustaxkam, iymoni butun, irodasi baquvvat, o'z vataniga mehr – sadoqat tuyg'usi kuchli shaxslarni tarbiyalash.

• Ҷ.İjtimoiy ong, ahloq va odobning milliy hamda umuminsoniy zaminni mustahkamlash. Milliy qadriyatlarni, buyuk allomalarni ilmiy meroslarini yoshlarga muntazam o'rgatib borilsa, albatta ulardan barkamol avlod etishib chiqadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirzyoev. Yangi o'zbekiston. taraqqiyot strategiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2022 103 b.
2. Sh.M.Mirzyoev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topganligini 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqi.
3. I.A.Karimov. "YUksak ma'naviyat engilmas kuch" Toshkent-2008.
4. R. I. Ahmedov. "O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari-tinchlik va barqarorlik kafolati". Sharq nashriyoti 2004 y.
- 5.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. Toshkent. Sharq nashriyoti 2004 y.
6. «Vatan himoyasi-muqaddas burch» T. Harbiy nashriyot. 2000 y